



ISLOMIY BANK MAHSULOTLARI ORQALI BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hakimova Sevara,

PhD, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston. Email: s_xakimova@tiame.uz

ORCID: 0009-0007-9202-7313

SPECIFIC FEATURES OF BUSINESS FINANCING THROUGH ISLAMIC BANKING PRODUCTS

Hakimova Sevara,

PhD, teacher, "Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers" National research university.

Toshkent, O'zbekiston. Email: s_xakimova@tiame.uz

ORCID: 0009-0007-9202-7313

JEL Classification: G24 Z10

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom moliyasining mohiyati va bugungi kundagi holati, islom banklarining iqtisodiyotdagi o'rni va uni joriy qilishning zaruriyati tadqiq qilingan. Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy iqtisodchilarining islomiy moliyalashtirishning ahamiyati bo'yicha tadqiqot ishlari keltirilib o'tilgan. Shuningdek, islomiy bank mahsulotlarining ta'rif va ularning mexanizmi bat afsil yotilib, biznesni moliyalashtirishda ulardan foydalanishning ahamiyati masalalari ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, O'zbekiston misolida islom moliyasini joriy etish masalasi, ushbu jarayon bilan bog'liq amalga oshirilgan ishlar hamda mazkur yo'nalishda erishilgan natijalar ham ushbu maqolada o'z aksini topgan. Xususan tijorat banklari va investitsiya fondi tomonidan islomiy moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, islomiy moliyalashtirish joriy qilingan dunyoning 18 ta mamlakatlarida islomiy moliya mahsulotlaridan foydalanish holati hamda murabahaning ushbu mamlakatlarda

biznesni moliyalashtirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, maqolada islom banklarini alternativ tizim sifatida joriy qilish imkoniyatlari bilan birga tizimning murakkabligi ham muhokama qilinib, O'zbekiston sharoitida biznesni moliyalashtirish tanlovini oshirish borasida islomiy moliyalashtirishni joriy qilishning ahamiyati tadqiq qilindi. Maqolada mamlakatda islomiy moliyalashtirishni joriy etishning zaruriyati aholi va tadbirkorlar bilan o'tkazilgan so'rovnomalari natijalarini asosida keltirilib o'tilgan. Mazkur ishda olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida O'zbekiston misolida islomiy bank xizmatlar orgali biznesni moliyalashtirishni keng joriy qilish, ommabopligrini oshirish va rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Islomiy bank, musharaka, mudaraba, murabaha, musavama, lizing, salom, istisna, sindikatsiya, vakala, kafala, juala, tavvoruq, investitsiya fondi.

Abstract: This article examines the essence and current state of Islamic finance, the role of Islamic banks in the economy, and the need for its introduction. This article presents research works by foreign and local economists on the importance of Islamic financing. It also describes in detail the definition of Islamic banking products and their mechanism, and considers the importance of their use in business financing. Furthermore, the issue of introducing Islamic finance in the case of Uzbekistan, the work carried out in this process, and the results achieved in this direction are also reflected in this article. In particular, the work carried out by commercial banks and investment funds on the basis of the principles of Islamic financing was analyzed. In addition, the state of use of Islamic financial products in 18 countries of the world where Islamic financing has been introduced, and the role and importance of murabaha in business financing in these countries were analyzed. Moreover, the article discusses the possibilities of introducing Islamic banks as an alternative system, as well as the complexity of the system, and examines the importance of introducing Islamic financing in terms of increasing the choice of business financing in the conditions of Uzbekistan. The article presents the need for introducing Islamic financing in the country based on the results of surveys conducted with the population and entrepreneurs. Based on the research and analysis conducted in this work, proposals and recommendations were developed on the widespread introduction, increase in popularity and development of business financing through Islamic banking services in the case of Uzbekistan.

Keywords: Islamic bank, musharaka, mudaraba, murabaha, musawama, leasing, salam, istisna, syndication, wakala, kafala, juala, tavwaruq, investment fund.

Kirish. O‘tgan asrning ikkinchi yarim yilligidan alohida iqtisodiy tizim sifatida shakllangan islom moliyasining eng dastlabki tarmog‘i islomiy banklar hisoblanib ular tizimda 70 foizdan ortiq ulushga egadir.

Islom moliyasining o‘ziga xos xususiyati u shariat qoidalariga asoslangan, real aktiv bilan ta’minlangan hamda foyda va zararlarning taqsimlanishi bilan an’anaviy moliyadan farq qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizim hisoblanadi.

Islom banklari faoliyati sherikchillikka asoslanadi va bank mijoz talabiga ko‘ra musharaka, mudaraba, murabaha, musavama, lizing, salom va istisna kabi shartnomalar asosida islomiy bank xizmatlarini ko‘rsatadi. Natijada bank va qarz oluvchi loyiha muvaffaqiyati va samaradorligiga teng huquqli bo‘lib, foydaga ham zararga ham manfaatdor sheriklarga aylanadi.

O‘tgan besh yillikda global islom bank sektorida aktivlar bo‘yicha 10,72%, moliyalashtirish bo‘yicha 9,89% va depozitlar bo‘yicha 8,76% yillik murakkab o‘sish sur’ati (CAGR) kuzatildi. Ta’kidlash lozimki, inflyatsiya bosimi, makroiqtisodiy pasayishlar va global moliyaviy bozorlardagi geosiyosiy keskinliklar davrida islomiy bank sanoatida yillik o‘rtacha 10-15 foiz o‘sish kuzatilishi e’tiborga loyiqdir.

Islomiy banklar ham shaxs ham jamiyat uchun manfaatli bo‘lib, shariat bo‘yicha taqiqlangan hamda zararli bo‘lgan faoliyatlarni moliyalashtirmaydi.

Shuningdek, bugungi kunda dunyo aholisining salmoqli qismini tashkil etgan musulmonlar ulushi demografik proqnozlarga ko‘ra, 2050-yilga borib qariyb 30 foizga yetishi taxmin qilinishi, islomiy banklar va ularning moliyaviy instrumentlariga bo‘lgan talablarning ortib borishini ko‘rsatadi.

Material va metod. An'anaviy iqtisodiyotga asoslangan mamlakatda islom bankchiligin alternativ tizim sifatida joriy qilib, biznesni moliyalashtirishda islomiy bank mahsulotlaridan foydalanish moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bilan bir qatorda iqtisodiyotda qo'shimcha o'sishga turki beradi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini yaratish tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy ta'minot tanlovini ko'paytiradi.

Islomiy bank tizimini joriy etishning ikkita yondashuvi (model) mavjud. Birinchisi mamlakatda faqat islomiy bank tizimi faoliyat ko'rsatadi va u tomonidan moliyalashtiriladi. Ikkinchisi esa ikki tomonlama bank tizimi amal qiladi va islom bank tizimi an'anaviy tizim bilan parallel ravishda ishlaydi. Ko'pchilik mamlakatlar dunyoda islom bank tizimini joriy etishda o'z yondashuvi sifatida ikkinchi toifani tanlaydi [1].

Islom banki vositachi muassasa sifatida ortiqcha mablag'ga ega bo'lgan tomonlarni ish beruvchilar, davlat va uy xo'jaligi kabi mablag'ga muhtojlar bilan bog'lash uchun xizmat qiladi [2].

Islom bankidagi mijozlar va omonatchilar uchun daromad va risk darajasi hamda kelajakdagi natijalar ijobjiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligi o'rtaida ijobjiy munosabat mavjud. Foyda taqsimoti yoki investitsiya daromadlarining ortishi talab va investitsiya talabining ortishiga olib keladi, aksincha, daromad yoki daromadning kamayishi investitsiyalarga talab va taklifning pasayishiga olib keladi [3].

Shuningdek islomiy moliyalashtirish faoliyatining yo'lga qo'yilishi yangi sarmoyaviy imkoniyatlarni yaratib, odamlarni tadbirkorlikka undashini ta'kidlanadi [4].

Shu bilan birga, islomiy bank tomonidan moliyalashtirishning ko'payishi iqtisodiy rivojlanish yoki biznesga foyda keltirishi va bu uzoq muddatga jamiyat farovonligini yaxshilash uchun uzoq muddatda muhimligini ko'rsatadi [3].

Bundan tashqari tadbirkorlar rivojlanishning dastlabki bosqichlarida majburiy foiz to'lovlaridan qochish uchun aktsiyadorlik kapitalini investitsiyalar yoki venchur kapital investitsiyalari orqali afzal ko'rishlarini ta'kidlaydi [5].

Mikro, kichik va o'rta biznes faoliyatlarini moliyalashtirishda an'anaviy moliya muassalarining imkoniyatlari doim ham yetarli bo'lmaydi va bir vaqtning o'zida an'anviy va noan'anaviy moliya muassasalarining mavjudligi esa yaxshi natija beradi [6].

Mazkur maqolada islom bank mahsulotlaridan biznes faoliyatlarini moliyalashtirish zaruriyati va ularning imkoniyatlarini baholashning nazariy-tashkiliy jihatlarini tahlil qilishda ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Ushbu maqola mavzusi global islom moliya sanoati, biznesni moliyalashtirishda foydalaniladigan islomiy moliyaviy vositalar va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islomiy moliyalashtirish bilan bog'liq ma'lumot va tahlillar asosida tadqiq qilingan.

Natijalar. Hozirgi vaqtida dunyoda 80 dan ortiq mamlakatda 2 mingga yaqin islom moliya muassasalari mavjud bo'lib, islom banklari yetakchi tarmoq hisoblanadi. Bugungi kunda islom banklari quyidagi xizmatlarni ko'rsatib kelmoqda (*1-jadval*).

Islom moliyasida shartnomalar moliyalashtirish maqsadiga ko'ra 3 turga bo'linib, ular foyda va zararni taqsimlash, savdo hamda haq va to'lov asosidagi moliyaviy mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Foyda va zarar taqsimoti asosida

moliyalashtirish daromadlarni adolatli taqsimlashga xizmat qilib, islom banklari tomonidan mazkur yo'nalishda bugungi kunda mushoraka va mudoraba shartnomalari foydalanilmoqda.

boshlash yoki yuritish uchun zarur mablag'larni sarmoya sifatida taqdim qiladi,

Mushorakada bank loyiha yoki korxonaning hamkor sifatida ishtirok etadi va mijoz bilan moliyaviy shartnomasi imzolash paytida kelishilgan nisbatda foydaga sherik bo'lsa, mudorabada esa bitta sherik biznesni

Shuningdek loyihaning muvaffaqiyatsizligi xatari faqat tadbirkor

1-jadval

Islom banklari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar¹

boshqa sherik esa ularni boshqarish orqali daromad keltiradigan faoliyatga kiritadi. Bunda, barcha ma'lumotlar shaffof bo'lishi va tomonlar bemalol foydalanishi mumkin.

emas, balki bank bilan ham bo'linadi hamda bank nafaqat moliyaviy mablag'lar bilan, balki o'z tajribasi va tarmoq aloqlari bilan ham loyihaga yordam berishi mumkin.

yakuniy narx bo'yicha o'zaro kelishuviga binoan, mijoz tomonidan belgilangan muddat davomida bo'lib-bo'lib to'lab boriladi.

Ijara asosida moliyalashtirishning

Savdo asosidagi moliyaviy

Iste'mol banki	Biznes banking	Korporativ banking	G'aznachilik	Boshqalar
shaxsiy moliyalashtirish; avtomobilni moliyalashtirish; uy va asosiy vositalarni moliyalashtirish; omonat hisoblari; joriy hisoblar; muddatli deposit; kredit kartasi; debet karta; investitsion hisob.	joriy hisoblar; muddatli depozit; naqd pul liniyasi lizing va ijara sotib olish; savdoni moliyalashtirish va xizmatlar; moliani birlashtirish; aksiyalarni moliyalashtirish.	korporativ bank ishi; korporativ moliya va maslahat; qarz va islom kapitali bozorlari; sindikatsiya.	korporativ depozit joylashtirishlar; xorijiy valyuta; strukturaviy mahsulotlar.	naqd pulni boshqarish; boylikni boshqarish.

shartnomalar amalda islom moliya muassasalari tomonidan keng qo'llaniladi. Xususan, turli uskuna, dastgohlar kabi aktivlar sotib olinishida banklar tomonidan murabaha shartnomasi ishlatiladi. Islom banki mol-mulkni mijozning ariza shaklida bergen maxsus buyurtmasiga asosan sotib oladi. Keyin esa o'sha mijozga mazkur mol-mulkni qimmatroq bank foydasini qo'shgan holda yangi narxda sotadi va tomonlarning

an'anaviy ijaraga o'xshash amaliy va

moliyaviy ijara turlari mavjud bo'lib, islom banklari tomonidan asosan avtotransport, qishloq xo'jaligida zarur bo'lgan jihoz va vositalarini sotib olishni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

¹"Islamic Finance Architecture" Islamic Banking & Finance Institute Malaysia, First Edition 2016


Istisnada esa xaridor ishlab chiqaruvchiga yoki quruvchi tashkilotga muayyan bir mahsulotni ishlab chiqarish yoki biror qurilish inshooti qurib berish bo'yicha buyurtma beradi va narx mahsulotning xususiyatlari va tavsiflari bilan birga shartnomada ko'rsatiladi. Kelishilgan narx bosqichma-bosqich (bo'lib-bo'lib) to'lanishi mumkin. Istisna islom banklari tomonidan ko'pincha qurilish, ishlab chiqarish va investisiya loyihalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi. Shuningdek, salam shartnomasi xaridor mahsulot narxini oldindan to'lash evaziga sotuvchidan kelajakda mahsulot sotib olishini ko'zda tutuvchi savdo bitimi hisoblanib, qishloq xo'jaligida keng qo'llanadi, ya'ni fermerlar

kelajakda olinadigan hosilni salam shartnomasi tuzish orqali oldindan sotishlari mumkin.

To'lov asosidagi bitimlarga vakala, kafala yoki juala kabi xizmatlar kiradi va ular islom banklari tomonidan murabaha va mudoraba mahsulotlariga yordamchi vosita sifatida taklif qilinadi.

Shuningdek islom banklari ma'lum haq evaziga o'z mijozlarining uchinchi tomon oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarishiga kafil bo'lishi mumkin [8].

Islomiy moliya munosabatlari mavjud mamlakatlarda talab va iqtisodiy faoliyatdan kelib chiqib turli xil moliyaviy instrumentlar orqali islomiy moliyalashtirish amalga oshirilishi mumkin.



1-rasm. 2024-yilning 1-choragida 18 ta mamlakatda islomiy moliya vositalarining o'rtacha ulushi, foizda²

Dunyoning 18 ta mamlakatlarida foydalanilgan bitimlarning 44 foizi murabaha, 12 foizi tavvoruq, 10 foizi esa ijaraga to'g'ri kelgan bo'lsa, atigi 8 foizi musharaka va 6 foizi esa musharakani kamaytirish bilan shartnomalar tashkil etadi (1-rasm).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatlar sotishga asoslangan

shartnomalarni afzal ko'riladi va kamdan-kam hollarda hamkorlik usullaridan foydalanadi.

Ayrim mamlakatlarda murabaha bitimi moliyashtirishda katta ulushga egadir (2-rasm).


Xususan, Iroqda ushbu ko'rsatkich 90 foizdan yuqori bo'lsa, Nigeriya va Sudanda 70 foizdan yuqori hamda Tukiyada

²Tugba Demirtas "Global islom banking mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha rivojlanish tahlili" 2024.

esa 55 foizni tashkil etgan. Garchi Malaziya islam moliyasi markazi sifatida hisoblansada, ushbu ko'rsatkich 11 foizni va Saudiya Arabiston va Pokistonda 10 foizdan kamni tashkil etgan. Bu mamlakatlarda boshqa moliyalashtirish bitimlarining ommalashgani bilan izohlanadi.

Shu bilan o'z navbatida, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham islam moliyasi

mahsulotlarini joriy etish va ommalashtirish yuzasidan amaliy ishlar qilinmoqda. Amaldagi qonunchilik doirasida O'zbekistonning 12 ta banki Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islam korporatsiyasining kredit liniyalari hisobidan murobaha xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, 2 ta bankda islomiy lizing va murobaha nasiyaga savdo operatsiyalari xizmatlari joriy etilgan.



2-rasm. 2024-yilning 1-choragida 18 ta mamlakatda murabaha bitimining o'rtacha ulushi, foizda³

Shuningdek, mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatishga berildi va bu kichik biznesni moliyalashtirishda muhim qadamlardan hisoblanadi.

Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan holda faoliyat ko'rsatayotgan "IMAN" investitsiya fondi hisobotiga ko'ra, 2023-yil 31-dekabr holatiga nasiya savdo potrfeli qariyb hajmi 67 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu kompaniya islomiy tamoyillar asosida aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish orqali asosan savdoni moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. 2023-yilda kompaniya mijozlari soni 13

mingdan oshgan bo'lsa, hamkor do'konlari soni qariyb 300 tani hamda oylik sarmoya rentabelligi (reinvestitsiya hisobiga) 18,25 foizni tashkil etgan.

Mazkur yo'nalishlarda erishilgan natijalar mamlakatda islomiy moliyalashtirishni joriy qilishni jadallashtirish, uning ommabopligrini oshirishni hamda istiqbolda rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida ko'rinishini taqozo etadi.

Munozara. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun islam bankchiligni joriy etish va ommalashtirish masalasi keng muhokama qilinadigan yo'nalish hisoblanadi. Ayrim

³Tugba Demirtas "Global islam banking mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha rivojlanish tahlili" 2024.

mamlakatlarda ushbu tizimga ehtiyoj mayjud emas deb e'tirof etilsa, musulmon aholisi katta ulushga ega bo'lmagan ba'zi davlatlarda ushbu tizim ommalashgan.

Islomiy bank xizmatlarini nisbatan qimmatroq bo'lishi an'anaviy banklar bilan raqobatlasha olmasligi bo'yicha fikrlar ham mavjud. Shuningdek, islomiy moliyaviy mahsulotlar an'anaviy mahsulotlardan farq qilishi ularni tartibga solish va nazorat qilish uchun maxsus qonunchilik bazasi zarurligi hamda tizimni joriy etishni murakkabligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, islom bank mahsulotlari bo'yicha aholining ma'lumotga ega emasligi va kadrlar yetishmasligi tizimning ommalashtirishda qiyinchilik sifatida qaraladi.

Vaholanki 96 foizdan ortiq musulmon aholiga ega O'zbekistonda alternativ bank tizimi sifatida islomiy bank mahsulotlarini joriy etish iste'molchilar uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytirgan holda moliyalashtirish manbalarini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirib, bank tizimida raqobat muhitini vujudga kelishiga xizmat qiladi va tadbirkorlar uchun tanlash imkoniyatini oshiradi.

Bundan tashqari, islomiy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyati bo'lgan, foyda va risklarning taqsimlanishi hamda real aktiv asoslangani zamonaviy iqtisodiyotda biznes muhitini uchun muhim sanaladi va ular faoliyati davomiyligini ta'minlab barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi bilan o'tkazilgan tadqiqoti natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan biznes vakillarining 38% va jismoniy shaxslarning 56% e'tiqodlari sababli an'anaviy bank kreditlaridan foydalamasliklari hamda islom

moliya tizimi joriy qilinsa 44% korxonalar (biznes) va 42% jismoniy shaxslar o'z shaxsiy (bo'sh) mablag'larini islom banklari omonatlari va sherikchilik loyihibariga kiritishlarini ma'lum qilgan. Dastlabki hisobkitob ma'lumotlariga ko'ra islom moliyasingning tashkil etilishi yiliga 10 mlrd dollar xorijiy investitsiyalarni kirib kelishi hamda budgetga qo'shimcha 100 mln dollar daromad jalg qilinishi imkonini beradi [6].

Xulosa. O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishni joriy etish va ommalashtirish birinchi navbatda alternativ bankchilik xizmatini vujudga keltirib mamlakat bank tizimini kengaytirish bilan bir qatorda unda raqobat muhitini shakllantiradi. O'z navbatida bu biznesni moliyalashtirish uchun qulay muhit hamda qo'shimcha resurs manbai va bank mahsulotlar tanlovini hosil qiladi. Shuningdek, islomiy moliyalashtirishni joriy etish kichik biznesni qo'llab-quvvatlash hamda kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, islomiy bank tizimini keng joriy etish va uning moliyaviy instrumentlaridan biznesni moliyalashtirishda foydalanishni ommalashtirish borasida quyidagi yo'naliishlar keltirilib o'tiladi.

Birinchidan, kuchli huquqiy va me'yoriy bazani shakllantirish tizim uchun qulay huquqiy muhitni yaratib, islom bank ishi tartibga solish imkonini beradi hamda mamlakatda islomiy bank xizmatlarini biznesga yo'naltirish imkonini kengaytiradi.

Ikkinchidan, banklar tomonidan biznes moliyalashtirish uchun islomiy moliya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bank mahsulotlarini taklif etish va tadbirkorlarga targ'ibot ishlarini olib borish. Xususan bugungi kunda bir qator banklar tomonidan tadbirkorlarga assosiy vosita, uskuna, texnika olish uchun murobahamahsuloti taklif qilinmoqda.

Shu bilan birga, yangi tizimni qo'llab-quvvatlash maqsadida islomiy moliyalashtirish bilan bog'liq qulaylik va imtiyozlarni ishlab chiqish ham tizimni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, islomiy moliya sanoati rivojlangan

boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish ham tizimni joriy qilishni tezlashtirishga katta turtki beradi. Bu hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki huquqiy va metodologik asosni yaratishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Islom moliyasi arxitekturasi" Islom bank ishi va moliya instituti, Malayziya, 2016.
2. Zariyawati, M. va boshqalar "Malayziyadagi kichik va yirik firmalarning aylanma mablag'larini boshqarish determinantlari", International Journal of Economics & Management, 2016.
3. Sri Herianingrum va boshqalar, "Islom banking biznesga ta'siri" tadbirkorlik va barqararlilik masalalari" Journal of Entrepreneurship and Sustainability Issues, ISSN 2345-0282 (online) 2019.
4. Sulayman H.I, Tanzaniya moliya tizimida islomiy moliya amaliyotining o'sishi va barqarorligi: muammolar va istiqbollar, 2015.
5. Cusmano, L. (2015). IHTT – Kichik va o'rta korxonalar va tadbirkorlikni moliyalashtirishga yangi yondashuvlar: instrumentlar doirasini kengaytirish, 2022.
6. Jahongir Imamnazarov, Islom moliya mahsulotlarini O'zbekistonda tatbiq qilish va qo'llash yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha tahlili hisobot, 2020.
7. Y.A.Baydaulet "Islom moliyasi asoslari" tarjimasi B. Jo'rayev tarjimasi, T.: "O'zbekiston", 2019.
8. Tugba Demirtas, Global islom banking mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha rivojlanish tahlili, International Journal of Social Science and Human Research, 2024.
9. Islamic finance development report 2024.
10. IMAN Invest kompaniyasining 2023 yilgi hisoboti.
11. www.cbu.uz
11. www.islommoliya.uz